

TURKISTON JADID MA'RIFATPARVARLARINING MILLIY UYG'ONISH VA IJTIMOIIY TARAQQIYOT KONSEPSIYASI

Oromova Laylo Ilhomovna

99 916 7006

oromovalaylo1@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining milliy uyg'onish va ijtimoiy taraqqiyot haqidagi konsepsiyasi tahlil qilinadi. Unda jadidchilik harakatining g'oyaviy ildizlari, milliy o'zlikni anglash jarayonidagi o'rni hamda ta'lim, matbuot, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi islohotlari yoritilgan. Shuningdek, jadid ziyolilarining ma'naviy merosi milliy mustaqillik g'oyasining shakllanishida va bugungi taraqqiyot jarayonida muhim manba ekanligi ilmiy asosda ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, ijtimoiy taraqqiyot, milliy o'zlik, yangi usul maktablari, matbuot, ma'rifat, modernizatsiya, milliy mustaqillik.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati ostida bo'lib, mahalliy xalq ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloq ahvolda edi. Mazkur sharoitda milliy o'zlikni saqlab qolish va xalqni taraqqiyot sari yetaklash masalasi keskin muammoga aylandi. Ana shu tarixiy zarurat jadidchilik harakatining shakllanishiga sabab bo'ldi. Jadid ma'rifatparvarlari milliy uyg'onishning g'oyaviy asoslarini ishlab chiqib, o'z davri uchun ijtimoiy taraqqiyot konsepsiyasini ilgari surdilar. Ma'naviy qadriyatlarni tiklash milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayondir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2022 yil 28 dekabrda Parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida: "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning bu so'zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta'lim sifati hamda jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi" – deb alohida ta'kidladi. Bu bejizga aytilmadi, albatta. Shu bois, ularning ma'nan boy hayot yo'lini o'rganish, ulardan ibrat va saboq olish xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni jasur, aql-idrokli, hamda Vatanini sevish va himoya qilish ruhida tarbiya topishida ulkan dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, milliy o'zlikni anglashda ulug' ajdodlarimizning siyosiy, huquqiy va ma'naviy qarashlarining ahamiyati va o'rni beqiyos.

O'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat – qomusiy bilim egasi, ma'rifatparvar shoir va jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan hisoblanadi. U Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' adiblar, shuningdek Forobiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Jomiy, Firdavsiy, Bedil, Umar Xayyom kabi mutafakkirlar merosidan ilhomlanib, axloqan yetuk inson tarbiyasiga bag'ishlangan tarixiy dramalar va publitsistik asarlar yaratdi.

Fitrat o'z asarlarida millatni uyg'onishga, ozodlik va erkinlikka da'vat etdi. U Amir Temur shaxsiyatini yuksak qadrlab, "Temur sag'anasi" asarida Sohibqiron siymosini ulug'ladi. Sovet davrida bu asarlar milliy ruh va g'ururni uyg'otishi mumkinligi bois tanqid qilindi va keng nashr etilmadi.

Shunga qaramay, Fitratning tarixiy dramalari xalq qalbidan chuqur joy oldi. Yapon olimi Xisao Kumatsu ta'kidlaganidek, tomoshabinlar bu asarlardan chuqur ta'sirlanib, ko'pincha teatrdan ko'z yosh bilan chiqardilar. Fitrat o'z ijodida mustamlakachilik davridagi Turkistonning og'ir ahvolini ifodalar, Sohibqiron Amir Temur ruhiga murojaat qilib, milliy ozodlik va uyg'onish g'oyalarini targ'ib etardi.

Abdurauf Fitrat (donishmand) yurtimizni bunday tushkun holatdan olib chiqish, uning mustaqilligi uchun kurashishga o'z davrining ziyolilari nomidan Temur hazratlariga va'da qilib shunday deydi:

"Ey arslonlar arsloni!

Mening yozuqlarimdan o't, Meni qo'limni tut, Belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber!

Sening dunyoga sig'magan g'ayratingga ont ichamanki, Turonning eski sharaf va ulug'ligini qaytarmasdan burun ayog'laringda o'tirmasman".

Yirik jadid ma'rifatparvari bo'lgan Fitrat o'z faoliyati davomida xalqning milliy o'zligini anglashiga yordam beruvchi barcha vositalardan foydalanishga harakat qildi. U nafaqat o'z asarlari orqali, balki o'z faoliyati bilan ham yurtdoshlarini ma'rifatli bo'lishga, milliy o'zligini anglab etishga da'vat qilgan. Buxoro Xalq Respublikasi maorif noziri bo'lgan davrida Abdurauf Fitrat 1922-1923 yillarda Germaniyaga tahsil olish uchun yuborilayotgan talabalarni Samarqandga olib borib, Amir Temur sag'anasi oldida, Vatanni esdan chiqarmaslikka, yurtga ilm olib kelib, xalqini ma'rifatli qilishga qasamyod qildirganligi haqida ma'lumotlar bizgacha etib kelgan.

Abdurauf Fitrat singari ulug' ajdodlarimiz Vatanni juda sevgan, uni qadrlagan va himoya qilgan. Ular uzoq o'tmishda ham, yaqin o'tmishda ham Vatan ozodligi, millat ravnaqi, xalqimiz hayotining farovonligi yo'lida butun umrlarini baxsh etib, bu yo'lida ko'rsatgan jasoratlari va fidoyiliklari bilan avlodlar qalbidan o'chmas iz qoldirgan. SHuning uchun ham, xalqimiz tarixida o'tgan ulug' ajdodlarni hurmat va ehtirom bilan yod aylab, ular faoliyatidan ibrat va saboq olib yashash barchaning, ayniqsa yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning vazifasi va muqaddas burchiga aylanmog'i lozim.

Mamlakatimizda ilm-fan va ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtab qolmaganligining, xalqimiz buyuk siymolarining ma'rifatparvarlik harakatlari eng og'ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Xuddi shunday bir og'ir ijtimoiy-siyosiy vaziyatda Buxoro jadidchilik harakati ham yuzaga kelib, bu harakatning ko'zga ko'ringan vakillari – Abduvohid Burxonov, Usmon Xo'ja, Abdurauf Fitrat, Mirkomil Burxonov, Fayzulla Xo'jaev, Sadridin Ayniy, Fazlitdin Maxsum, Abdurahim Yusuf kabilar ma'rifatparvarlik g'oyalarini baland ko'tarib, nafaqat xalqni ma'rifatchilik qilishga, shuningdek, mustaqillik g'oyalarini shakllantirishga ham ulkan hissa qo'shgan edilar.

Bu yangilanishlar negizida milliy uyg'onish, milliy mustaqillik uchun sa'y-harakatlarda Buxoro jadidchilik harakati vakillarining o'rni salmoqli bo'ldi. Ular birinchilardan bo'lib, millatning taraqqiy etishi uchun xalqning ozod bo'lishi lozimligini anglab etib, xalqimizning milliy ongini uyg'otishga harakat qildilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganlaridek: "...biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi". Prezidentimizning ushbu fikrlaridan ko'rinib turibdiki, bugun yirik davlat arboblarning boy ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish, ularni xalqimizning ma'naviy- ma'rifiy, siyosiy-huquqiy mulkiga aylantirish, ularni tadqiq etish – milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari eng ulug' g'oyaga xizmat qilishi shubhasiz.

Prezident Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, bugungi kunda bu kabi ulug' ajdodlarimizning boy merosini chuqur o'rganish, uni yoshlar qalbiga singdirish, milliy o'zlikni anglash, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil sifatida qaralishi lozim. Fitrat kabi siymolarning hayoti va ijodi – bu xalqimiz uchun beqiyos ma'naviy boylik, ibrat maktabi va milliy g'urur manbaidir. Ularning asarlari va faoliyati bugungi taraqqiyot, istiqloq va milliy yuksalish yo'lida bizga ruh, kuch va ilhom bag'ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурауф Фитрат. *Танланган асарлар*. — Тошкент: «Маънавият», 2000.
2. Мирзиёев Ш.М. *Янги Ўзбекистон стратегияси*. — Тошкент: "Ўзбекистон", 2021.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. // *Халқ сўзи* газетаси, 2020 йил 25 январ.
1. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O'zbekiston tarixi.(o'quv qo'llanma)T.2011
2. Karimov I.A. Biz kelajagimiznio'z qo'limiz bilan quramiz.T:O'zbekiston.1999.B.385
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son 4. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109